

XiZmAT Ko'RSATiSH KoRXoNAIArIdA iNNoVATSioN
IoYiHAIAr SAMARAdoRliGiNi oSHiRiSH

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali.

Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes

kafedrasi o'qituvchisi

Umirov Islombek Furqativich

+998933516500

TDIU Samarqand filiali, talabasi

Shakarov Hasan Shuhrat o'g'li

hasanshakarov90@gmail.com

+998997072357

Annotatsiya: Maqolada xizmat ko'rsatish sohasida innovatsion loyihalarni amalga oshirish samaradorligini oshirish yo'nalishlari tahlil qilingan. Xizmat ko'rsatish jarayonida inson kapitali asosiy ishlab chiqarish omili bo'lganligi sababli sohada samaradorlirni ifodalovchi ko'rsatkichlarning tavsifi va mazmuniga e'tibor qaratiladi. Innovatsiyalarni joriy etish nafaqat korxona raqobatbardoshligini ta'minlash, balki iqtisodiyotning umumiy milliy rivojlanishiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi

Kalit so'zlar: samaradorlik, innovatsiya, iqtisodiy faoliyat, texnologiyalar, loyihalar boshqaruvi.

Iqtisodiyotning barcha sohalari va tarmoqlarida sifatli iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi yangiliklarni uzluksiz tarzda amaliyotga joriy etish jamiyatni barqaror rivojlanishining harakatlantiruvchi kuchiga aylanganligini ko'rsatmoqda. Jahon iqtisodiyoti innovatsion rivojlanish modeliga o'tgan va "aqlli" texnologiyalar va sun'iy intellektni amaliyotga joriy etayotgan mamlakatlar yuqori samaradorlik va muvaffaqiyatga erishayotgan davlatlar hisoblanadi. Bunday mamlakatlarning barqaror taraqqiyoti, ularning jahon

bozorlarida raqobatbardoshligi tabiiy resurslarni eksport qilish va jismoniy mehnatdan foydalanishga emas, balki innovatsion g'oyalari va ishlanmalarga asoslanadi.

Hozirgi kunda iqtisodiyotda ustuvorlikka ega bo'lgan xizmat ko'rsatish sohasi korxonalarida innovatsion loyihalarni realizatsiya qilishda yuzaga keladigan innovatsion jarayonlar xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1. Innovatsion loyihalarni realizatsiya qilish bo'yicha qarorlarni qabul qilish uchun korxona rahbariyati tomonidan takliflarni ishlab chiqish va innovatsion faoliyatning muhim yo'nalishlarini aniqlash, ilmiy-texnik siyosatni amalga oshirish bo'yicha ixtisoslashgan bo'lim, kengash yoki ishchi guruhni boshqarishning yuqori darajasini shakllantirish. Ularning tarkibiga marketing xizmati rahbarlari, ITTKI, moliya, sotish, ishlab chiqarishni ta'minlash, markaziy xizmat vakillari, bo'lim boshliqlari kiradi.

2. Soha korxonalarida innovatsion loyihalarni rejalashtirish va baholash, g'oyalarni muhokama qilish yo'li bilan turli xil bo'limlar ishtirokchilarining innovatsion faoliyatini kelishuvi va muvofiqligini amalga oshiruvchi ham korxonada, ham uning boshqaruv tuzilmasida yangi xizmatlarni rivojlantirish markazini tashkil etish.

3. Innovatsion g'oyadan yangi turdagi xizmatlarni ishlab chiqarish va realizatsiya qilishgacha innovatsion jarayonlarni kompleks amalga oshirish uchun 3-4 kishi tarkibida mustaqil xo'jalik qismlarini – yangi xizmatlarni ishlab chiqarish bo'yicha maqsadli loyiha guruhlarini tashkil etish. Bunday guruhlar xizmat ko'rsatish korxonasining boshqa bo'limlari bilan o'z harakatlarini muvofiqlashtirmagan holda mustaqil faoliyat yuritadi, u xususiy motivlar va tashabbuslar tizimiga ega bo'lib, innovatsiyalarni moliyalashtirish va rentabellik masalalarini hal qilishda faqatgina firmaning yuqori boshqaruviga bo'ysunadi.

4. Ilmiy tadqiqot va tajriba konstruktorlik ishlanmalari (ITTKI)ning bo'limlari rolini oshirish: ular nafaqat yangi istiqbolli g'oyalarni qidirish va ishlab chiqishni, balki ularni o'zlashtirish, ishlab chiqarish va sotish bosqichigacha

yetkazishni olib boradilar. Bunda ularni moliyalashtirish hajmi xizmatlarni sotish hajmini 3 dan 10 %gacha oshishini ta'minlaydi.

5. Innovatsiyalarga yo'naltirilgan "riskli kapital"ni mustaqil moliyalashtirish maqsadida xizmat ko'rsatish korxonasi foydasining bir qismini innovatsion faoliyatga yo'naltirish bo'yicha maxsus jamg'armalarni yaratish asosida venchur bo'limlarini yaratish.

Hozirgi vaqtda innovatsiya faoliyatini moliyalashtirish maqsadida foydalaniladigan mablag'larning asosiy manbai sifatida: mahalliy va respublika miqyosida ajratiladigan byudjet mablag'lari; innovatsion korxonalar (IK) tomonidan shakllantirilgan maxsus nobyudjet ITTKIni moliyalashtirish fondlari mablag'lari; korxonalarning shaxsiy mablag'lari; turli turdagi tijorat tuzilmalari (investitsiya kompaniyalari, tijorat banklari, sug'urta jamiyatlari, moliya-sanot guruhlarini)ning moliyaviy resurslari; tijorat baklarining kredit resurslari; xorijiy investitsiyalar; milliy va xorijiy ilmiy fondlarning mablag'lari; aholining shaxsiy jamg'armalari xizmat qilishi mumkin¹.

Venchur jamg'armalari fan sig'imi yuqori bo'lgan yangi ishlanmalarga mablag' kiritishga tayyor turgan yagona investor bo'lib, ular hatto risk va noaniqliklar darajasi juda yuqori bo'lgan holatlarda ham mablag'lar kiritishga qodir. Aynan mana shu holatlar eng yuqori (maksimal) foyda olish imkonini yuzaga keltiradi. Venchurli investitsiyalar odatda 5-7 yil davomida faoliyat ko'rsatadi².

6. Tadqiqotchilar, rahbarlar, funksional bo'limlar vakillari tarkibida maslahat yoki analitik guruhni tashkil etish. Ularning funksiyasiga: yangi turdagi xizmatlarga talabni aniqlash, yangi texnologiyalar rivojlanishini istiqbollashtirish, istiqbolli g'oyalarni tanlash, tadqiqot mavzularini aniqlash, maxsus loyihalar doirasida olimlar va muhandislar ishlarini muvofiqlashtirish.

7. Yangi turdagi xizmatlarni yaratish jarayonida zamonaviy texnologiyalarni o'zlashtirish muammolari bo'yicha maxsus tarmoq


laboratoriyalarini yaratish. Hududiy ilmiy-texnik va ijtimoiy dasturlarni realizatsiya qilish ilmiy (universitetlar), bank va moliyaviy tashkilotlar, turli xil ilmiy markazlari birlashmalarini muvofiq tarzda tashkil etish bilan bog'liqdir.

Xizmat ko'rsatish sohasi xo'jalik subyektlarida innovatsion loyihalar uchun investitsiyalarning asosiy manbalari:

- korxonaning o'z moliyaviy resurslari (korxona mulki, asosiy fondlar va boshqalar) va qarz mablag'lari;
- respublika va mahalliy byudjetlardan ajratiladigan mablag'lar;
- qarz mablag'lari;
- xorijiy investitsiyalar.

Investitsion imkoniyatlarni o'rganish bosqichida xizmatlarga bo'lgan talabni dastlabki o'rganish, innovatsion mahsulotlar va xizmatlarning asosiy, joriy va prognoz narxlari darajasini baholash amalga oshiriladi. Shuningdek, loyihani amalga oshirishning tashkiliy-huquqiy shakli va uning ishtirokchilari tarkibi bo'yicha investitsiyalarning kutilayotgan hajmi va ularning tijorat samaradorligini dastlabki baholash bo'yicha takliflar ishlab chiqiladi.

Innovatsion loyiha samaradorligini baholashning taklif etilayotgan mexanizmidan foydalanish maqsadida innovatsion loyiha bilan shug'ullanuvchi xodimlar o'rtasida mas'uliyat taqsimlandi. 3.2-rasmda tavsiya etilgan usullarning birinchisidan amaliy foydalanish yangi yoki takomillashtirilgan texnologiyaning bozor jozibadorligini baholash amalga oshiriladi.



3.2-rasm. Innovatsiyalarning bozor jozibadorligini baholash mexanizmini qo'llash algoritmi³

Tadqiqotni amalga oshirishning konstruktiv bosqichida innovatsion loyihani amalga oshirish bilan bog'liq holda xizmat ko'rsatish korxonasining imkoniyatlarini aniqlash usullari taklif etiladi. Kerakli qo'shimcha resurslarni sotib olish xarajatlarini hisoblab chiqqandan so'ng, natijada olingan qiymatni korxonaning o'z aktivlari qiymatiga qanday bog'liqligi baholanadi. Agar bu qiymat 0,7 koeffitsientdan oshmasa, loyiha amalga oshirish uchun qabul qilinishi mumkin. mazkur ko'rsatkich, o'ziga xos ma'noga ega bo'lib, xizmat ko'rsatish korxonasining tashqi muhitga, xususan, jalb qilinadigan resurslarining tashqi manbalariga bog'liqligini ifodalovchi ko'rsatkichdir. Xizmat ko'rsatish korxonasi uchun ushbu ko'rsatkichning 0,7 koeffitsientdan oshib ketishi moliyaviy muqobillikni yo'qotish bilan tahdid qilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Pardayev M.Q., Isroilov J.I., G'apparov A.Q. Xizmat ko'rsatish sohasida iqtisodiy tahlilni takomillashtirish muammolari. Risola. Samarqand. "zarafshon", 2009. - 66 b.- 4,1 b.t.

1. Po'latov M.E., Mirzayev Q.J., Sultonov Sh.A., Shavqiyev E. Global iqtisodiy rivojlanish (turizm iqtisodiyoti). o'quv qo'llanma. T.: Fan va texnologiya, 2018. 296 b.

2. <https://yuz.uz/uz/news/>

3. 4. <https://journals.proindex.uz/index.php/jiesr/article/download/199/165/329>

4. <https://in-academy.uz/index.php/si/article/download/37941/24213/39734>